

YOSHLARDA SPORT QOBILIYATLARI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

*Akramov Abdufattoh Shavkatovich - "Turon Zarmed universiteti
Maktabgacha ta'lim va sport faoliyati kafedrasi o'qituvchisi*

Kalit so'zlar: sport, yoshlar sporti, qobiliyat, yosh sportchilar, psixologik tahlil, xotira, idrok, hissiyot, fiziologiya, taffakur, induvidual salohiyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda sport qobiliyatlari shakllanishida psixologik yondashuvi va ularning faoliyatidagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, qobiliyat va iste'dodlariga psixologik nuqtai nazardan yondashuvlari, idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik kabi xususiyatlari haqida bayon etilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ СПОРТИВНЫХ НАВЫКОВ У МОЛОДЕЖИ

Акромов Абдуфаттох Шавкатович - «Преподаватель кафедры дошкольного воспитания и спортивной деятельности Университета Турон Зармед»

Ключевые слова: спорт, детско-юношеский спорт, способности, юные спортсмены, психологический анализ, память, восприятие, эмоция, физиология, мышление, индивидуальный потенциал.

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о психологическом подходе к формированию спортивных навыков у молодежи и их значении в их деятельности. Также рассказывается о психологическом подходе к способностям и талантам, особенностях восприятия, воображения, мышления, памяти, наблюдательности.

THE IMPORTANCE OF A PSYCHOLOGICAL APPROACH IN THE FORMATION OF SPORTS SKILLS IN YOUTH

Akramov Abdufattoh Shavkatovich - "Teacher of the Department of Preschool Education and Sports Activities of Turon Zarmed University

Key words: sport, youth sport, ability, young athletes, psychological analysis, memory, perception, emotion, physiology, thinking, individual potential.

Abstract: In this article, opinions are expressed about the psychological approach to the formation of sports skills in young people and their importance in their activities. It is also described about the psychological approach to abilities and talents, the characteristics of perception, imagination, thinking, memory, and observation.

Pedagogik faoliyatda o'quvchi yoshlarning rivojlanganlik darajasini aniqlash va uni shakllantirishga erishish o'quvchilarni intellektual qobiliyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini va shaxsiy xarakter sifatlarini psixologik tashxis asosida yondoshuv orqali baxolashni talab qiladi. O'quvchilarni shakllanish jarayonini, ularning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik va tafakkur darajasini me'yorini aniqlamasdan turib ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mushkul xisoblandi, bu bo'lsa pedagogikada psixologik tashxis o'ta muximligini anglatadi. Zero psixologik-pedagogik tashxis qo'yish shaxs faolligini eng maqbul tarzda boshqarish usullaridan foydalanishga yordam beradi. Psixologik tashxis asosida insonning shaxsiy temperament hususiyatlari me'yoriy va patologik yo'nalishida o'rganiladi va shaxsning qobiliyati va iste'dodini yuzaga chiqarib shakllantirilishiga erishiladi. Shaxsning qobiliyat va iste'dodlariga psixologik nuqtai nazardan tashxis asosida yondoshuvda quyidagilar e'tirof qilinadi ya'ni Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan, ko'nikma va malakadan keskin farq qiladi hamda inson tomonidan ko'nikma va malakaning egallanishi jarayonida takomillashib boradi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi. Qobiliyat deganda birorta hususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining hususiyati sanaladi, ammo aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyatni bir biriga bog'lab ko'rsatishadi. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat – kuzatuvchanlikdan, ya'ni insonni faxmlash, ob'ektdan u yoki bu alomatlarini ko'ra

bilish, ajrata olish ko‘nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi hususiyatlaridan biri – narsa va hodisalarning mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo‘lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko‘pincha narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo‘ladi. Zehn nishonalari deganda shaxsning ichki imkoniyatlari tabiiy asosini tushunish lozim. Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak amaliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyatni tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirish mumkin. Qobiliyatni ma’lum faoliyatga moyilligi yoki intilishi orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo‘llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablari bilan uyg‘unlikda olib borish va bu orqali rivojlantirish yo‘llari mavjud. Shaxsdagi qobiliyat va iste’dodning tarkib topishi yoki shakllanishi ayrim obektiv va subektiv sabablarga xam bog‘liq. Shaxsdagi zehn, mayl va qiziqish, intilish- bu sohada yetakchi o‘rin tutadi. Zotan, zehni o‘tkir, kuzatuvchanlik va tafakkur kabi qobiliyati kuchli bo‘lgan kishilarda iste’dod qirralari rivojlangan bo‘ladi. Chunki bunday fazilatlar ko‘p narsani bilib olishga, mutaqqil ijodiy fikrlashga undaydi. Iste’dod, talant – nihoyatda zo‘r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya ustunligida, voqeahodisalarning yangi qirralarini, ularning bilimlarini o‘zlashtirish, nazariy va amaliy masalalarni hal etishi, ijodi, o‘z bilimi va malakalarni turmushga tadbiq eta olishidan uni iste’dodini bilish mumkin. Iste’dod insonning ma’lum faoliyati turida o‘zini namoyon etadi. Bilim, ko‘nikma, malaka, tajribalar iste’dodni rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Qobiliyat yoki layoqat o‘shiga ijtimoiy sharoit yaratilganda, uni tarbiyalab kamolga yetkazilganidagina iste’dod yuzaga chiqadi. Iste’dodga insonning mehnatsevarligi ham qo‘shilgan taqdirda yangilik va kashfiyotlar paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni ma'lum bir yo'nalishda rivojlantirilsa, uning pedagogik qobiliyati va mahorati yanada oshib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Амонов М. Н. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕДЖЕЙ //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 9-14.
2. Akramov, A. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. sENTR NAUChNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz), 8(8).
3. Akramov, A. (2021). FIZICHESKAYa KULTURA V SISTEME SOTSIALNOY PSIXOLOGICHESKOY ZAЩITE S NASELENIEM. sENTR NAUChNYX PUBLIKATSIY (buxdu. uz), 8(8).
4. Akramov, A. (2021). SHARQ ALLOMALARINING MILLIY SPORT O'YINLARI TO'G'RISIDAGI ILMIY FIKR VA QARASHLARI. EDAGOGIK AHORAT, 250.
5. Shavkatovich, A. A. (2020, December). MORAL EDUCATION IN THE MIND OF THE YOUNG GENERATION PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION. In Konferensii.
6. Ortiqov O. R. GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – С. 160-165.
7. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
10. Amonov M. N. THE PROBLEMS OF DESIGNING PROFESSIONAL SKILLS AND INDEPENDENT TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN UZBEKISTAN //Academic research in educational sciences.– 2021. – T. 2. – №.3.

11. Хожиева, Матлуба Шукуровна, and Бахтиёр Тўйевич Хамраев. "БЎЛАЖАК ЎЎИТУВЧИЛАР МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ." Scientific progress 2.8 (2021): 196-202.
12. Ходжиева, Матлуба Шукуровна, and Бахтиер Тўйевич Хамраев. "ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УБЕЖДЕНИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В КАЧЕСТВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРОБЛЕМЫ." Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture 2.2 (2022): 114-118.
13. Hojiyeva, Matluba. "TA'LIM JARAYONIDA AKSIOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2021).
14. Olimov S. S., Khomidov K. K. Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 132-136.
15. Kupaysinovich K. K. INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.
16. Bobirovich, N. M. . (2022). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(12), 68–71.
17. Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHASXLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 2 (6), 1146-1149.